



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



“FAMILIYA” SO‘ZINING MOHIYATI

Fayzullo Musayev

Oriental universiteti

Sharq tillari kafedrası o‘qituvchisi

fayzullomusaev@gmail.com

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, familiya so‘zi lat. familia (рус.- семья) so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbekchada “urug’ “ ma’nosini beradi. U o‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra, jamiyatdagi bir urug‘ga tegishli kishilar jamoasining umumiy ismiga dalolat qiladi. Familiya kishining ismi oldiga sifat tarzida ilova qilinuvchi so‘z bo‘lib [1], uning qaysi urug‘ga mansub ekanini ko‘rsatadi. [2]

U tarixan faqat kishilargagina dalolat qilib qolmay, balki sekin-asta uning mulkiga ham ishorat qiladigan bo‘ldi: Rim imperiyasi davrida quldorning familiyasi quliga ham tegishli bo‘lgan. Shuningdek, Rossiyada krepostnoy dehqonlar ham xo‘jayinning familiyasida yuritilganlar. Imenielar sotilganida dehqonlari bilan birga boshqa xo‘jayinga o‘tkazilgan. "Ты чей?" - degan savolga "Были Ивановы, а тепер стали Сидоровы", - deb javob berishar ekan. Demak, familiyaning o‘zgarishi mulk egasining o‘zgarishini ham anglatgan. [3]

Yaqin tariximizda familiyani otasining ismi deb, keyinchalik otaning otasining ismi deb tushunilgani ko‘pchilikning yodidan ko‘tarilib ulgurgani yo‘q. Ba’zi kishilarimizda bobosi va otasining familiyasi boshqa bo‘lgani holda nevaraning familiyasi boshqacha bo‘lgan hollar kuzatiladi. Masalan, “Ahmad va uning o‘g‘li Muhammad; so‘ngra uning o‘g‘li Mahmud; so‘ngra uning o‘g‘li Samad" bo‘lsa, ularning familiyalari quyidagicha bo‘lgan hollar kuzatilgani ma’lum: Muhammadning otasi Ahmad bo‘lganidan uning pasportidagi yozuv: Axmedov Muxammad; Familiyasi otasining nomidan; pasportda otasining nomi degan grafa – bo‘sh; Mahmudning familiyasi otasining otasi - bobosi nomidan olingani uchun uning pasportidagi yozuv: "Axmedov Maxmud Muxamedovich"; Lekin Samadning familiyasi otasining otasi, ya’ni bobosidan olinishi kerak, deb tushunilgani uchun Muxamedov Samad Maxmudovich". Otaning familiyasi Axmedov bo‘lgani holda, o‘g‘ilning familiyasi Muxamedov bo‘lishi fao‘lgani tushunchasidan bexabarlik va familiya yuritish rasmini bilmaslik oqibati bo‘lib, ish merosxo‘rlikka borib taqalganida ishkal yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Katta yoshdagi ba’zi kishilarimizning pasportidagi rasmiy ismida familiyasi otasining ismidan olingani uchun otasining ismi degan grafasi bo‘sh qolgan yoki "xxx" belgisi qo‘yilgan. Pochta orqali yuborilgan pul yoki qimmatbaho jo‘natma (banderol)ga ilova qilingan hujjatdagi o‘sha grafani "неизвестно" kabi haqorat si- fatida qabul qilinishi lozim bo‘lgan so‘z egallaganiga ushbu satrlar muallifi guvohdir. Gap shundaki, otamning ham pasportida o‘sha grafasi bo‘sh edi. Dadamning aytishicha; - “Buning sababi sobiq Ittifoq davrida o‘zbek qishloqlaridagi kolxoz tuzumi yoki tizimida qishloqdan yoshlar, ya’ni asosiy





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ishchi kuchi ketib qolmasin uchun mahalliy hokimiyat ularga pasport bermas edi yoki pasport bermaslikka harakat qilar edi” degan. [4]

Keyinroq ma'lum bo'lishicha, familiya eng katta bobosining ismi deb tushuniladigan bo'ldi-yu, lekin familiyaning asl ma'nosi urug' nomi ekani hali ham etarlicha tushunilmaganga o'xshaydi; ha, urug'... Ko'chmanchi xalqlarda urug'chilikka hali ham katta e'tibor berishadi; o'zining qaysi urug'dan ekanini aniq-taniq bilishadi va surishtirishadi ham. Masalan: "Katta juz, kichik juz, o'rta juz" lar; "O'g'uz", "Qipchoq", "Qoraxitoy"lar; "Nayman", "Mo'no'k" "Teyke"lar va hokazolar, lekin...

Lekin, bizda o'zbeklarda urug'chilikka e'tibor ko'chmanchi xalqlardagiga qaraganda ancha sust; kishilarimizning aksari o'z urug'ini bilmaydi desak, haqiqatga xiyonat qilmasak kerak. [5]

Familiya qabul qilinishida faqat bobolar ismidangina emas, balki toponimlar, ya'ni joy nomi ham, shuningdek kasb nomi ham asos bo'lgani ma'lum. [6]

Urug'chilikka qaraganda xalqimizda boshqa bir omilga e'tibor bor: kishining qaerdan ekanini amalda hozir ham surishtirishadi. Joy nomidan olingan nisba tushunchasining uzoq tariximizda kishini tanitishdagi rasmiy ismi sifatida keng joriy topgani shundan bo'lsa kerak. Buning ustiga amalda hozir ham ba'zilar: "Falon joylik falonlardan Falon o'g'li Falonni (masalan, Ko'kchalik Xo'jalardan Ahmadxo'ja o'g'li Mag'mudxo'jani) taniysan - mi?" deb surishtirishlari ko'pchilikka ma'lum.

Muallif izohi:

Internetdan olingan ma'lumotlarni o'z xolicha keltirishni ma'qul ko'rdik: Oilaviy prefikslar va oxirlar odatda asl tilda "o'g'il" yoki "qiz" so'zini bildiradi yoki sifatdosh shakllarini shakllantirib, jalb qilishni (egalikni) bildiradi...

"Familiya" so'zining o'zi irsiy familiyani nazarda tutadi, bu odamning umumiy ajdoddan kelib chiqqan bir oilaga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Bu so'z (lotincha familia oilasi) Rim imperiyasi davrida ham jamoa ma'nosini bildirgan, balki nafaqat mulkdorlarning oilasini, balki ularning qullarini ham anglatardi. Uzoq vaqt davomida O'rta asrlarda Evropada, shuningdek qisman Rossiyada "familiya" so'zi huddi shunday ma'noga ega edi. Xususan, Rossiyada krepostnoylik huquqi bekor qilingandan keyin krepostnoylar ko'pincha xo'jayinidan familiya oldilar. 19-asrda rus tilidagi "familiya" so'zi zamonaviy ma'noga ega bo'ldi: "shaxsiy ismga qo'shilgan irsiy familiya".

Nikohdan so'ng ko'pincha ayollardagi familiya o'zgarishini mazkur hodisaning qoldig'i sifatida talqin qilish mumkin.

Dadamning aytishcha; - "Pasport beruvchi tashkilotning ana shunday kayfiyatdagi xizmatchisi bilan muomala qilib, undan qanday qilib bo'lsa ham pasport undirmoqchi bo'lgan o'spirinning holini tasavvur qilish qiyin bo'lmasa kerak; xar holda o'zim pasport olayotganimda uni to'ldirayotgan vazifador xizmatchi yozish malol kelganidanmi yoki boshqa sababdanmi "...-vich" qo'shimchali otasining ismi grafasini to'ldirigisi kelmadi. "Bunisi-chi?" deganimda, "Nima, o'rismisan, "..vich- vich" bo'lasan!"- deb javob bergach,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



naqd pasport nasyaga aylanib kolmasin deya, "xo‘p, mayli, beraqoling», deya pasportni shu holda olishga rozi bo‘lgan edim - deydi.

Yana dadamning aytishicha; - "1967 yili O‘sh - Pomir yo‘lining "41- kilometr"i deb nomlangan joyda bizni mehmon qilgan qirg‘iz oilasidagi yigitchaning ismi Paqal ekan. "Bu qanaqa ism bo‘ldi?" deb otasidan so‘rasak, urug‘imizning nomi deb tushuntirdi; ma‘lum bo‘lishicha, "Nayman", "Manak (Mo‘no‘k)", "Teyke" kabi toponimlar ham "Paqal" kabi urug‘ nomlarini bildirar ekan"- dedi.

1999 yili Chimkent shahriga borganimda Qozoq xalqi ham o'zlarini qaysi urug'ga xos ekanligini yaxshi bilisini aytishgan va menga qarata bir qozoq amaki shunday degan;-"Sen sartlar qaysi urug‘dan ekaningni bilmaysan. Yo bilasanmi?" deganida: "To‘g‘ri..." deya oldim, xolos.

Ruscha familiyalar asosan cherkov yoki cherkov bo‘lmagan nomlar yoki taxalluslardan otasining ismi sifatida shakllanadi, masalan, Ivanovning o'g'li Ivan Ivanov, Medvedevning o'g'li Medved Medvedev. Mahalliy nomlardan kamroq, masalan, Beloe Ozerodan Belozerskiy. Familiyalarni shakllantirishning boshqa sxemalari, masalan, kasbi yoki shaxsning ba'zi xususiyatlari bo'yicha, rus tilida unchalik samarali emas (masalan, kuznetslik Kuznetsov), garchi boshqa tillarda ular ancha keng tarqalgan bo'lishi mumkin (masalan, ingliz Smit - Smit).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 1tom M.1981
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 2 tom M. 1981
3. O‘zbek tili grammatikasi 1tom T 1978
4. O‘zbek tili grammatikasi 2 tom 1978
5. O.S. Axmanova. Slovar lingvisticheskix terminov. M. 1969.
6. www.vsefamili.ru